

MANZARALI DARAXT-BUTALAR – SHAHRIMIZNING YASHIL QALQONLARI*Akbarova Muhayyo Xusanovna**Farg`ona davlat universiteti katta o`qituvchisi**Sharobidinov Sherzod**Farg`ona davlat universiteti magistranti*

Аннотация. Mazkur maqolada Farg`ona shahri hududida o`sayotgan daraxt-butalar dendroflorasini o`rganish maqsadida olib borilgan kuzatishlar, o`tkazilgan monitoringlar xulosalari yoritilgan.

Kalit so`zlar: endem, introdutsent, fitodizayn, landshaft arxitekturasi, «yashil dastur», ko`kalamzorlashtirish agrotexnikasi, morfo-biologik xususiyat.

Аннотация. В данной статье описаны наблюдения и выводы мониторинга, проведенного с целью изучения дендрофлоры деревьев и кустарников, произрастающих на территории города Ферганы.

Ключевые слова: эндемик, интродуцент, фитодизайн, ландшафтная архитектура, «зеленая программа», агротехника озеленения, морфобиологический признак.

Abstract. This article describes the observations and conclusions of the monitoring conducted to study the dendroflora of trees and shrubs growing on the territory of the city of Fergana.

Key words: endemic, introducer, phytodesign, landscape architecture, "green program", landscaping agricultural technology, morphobiological trait.

Bugungi kunda shaharlarni me`moriy jihatdan o`zgacha chiroyga ega bo`lishi shahar landshaftini hosil qilishda yangi, o`ta manzarali va ayni hududning iqlimiga mos daraxt va butalarni introduksiya qilishni talab qilmoqda. Manzarali endem va introdutsent o`simliklar hiyobon va bog`larning ko`rki hisoblanib, shahar, tuman va qishloqlarda arxitektura ishlarining yashil bezagi sifatida keng foydalaniladi.

Yurtimizda ko`kalamzorlashtirish va fitodizayn yaratish ishlarida mahalliy flora o`simliklari bilan bir qatorda introduksiya qilingan, biologik xususiyatlari jihatidan istiqbolli, manzaraliligi o`ta yuqori bo`lgan turli buta va daraxt hamda gulli o`tsimon o`simliklardan keng miqyosda foydalanilmoqda. Bu ishlarda esa tabiiyki, insonlarning e`tiborini nafaqat tashqi ko`rinishi va go`zalligi bilan jalb qiladigan, shuningdek O`zbekistonning keskin kontinental iqlimi va tuproq sharoitlariga mos bo`lgan, fitonsidlik xususiyatlari va boshqa foydali belgilari bilan ham ajralib turidigan o`simliklarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Manzarali daraxt-butalar ham kishilarga estetik zavq berishdan tashqari, ular shahar va qishloqlarni chang, tutun, ishlangan gaz va hokazolardan saqlashdek juda katta sanitar ahamiyatga moyildir. Ko`pgina daraxt-butalar fitonsidlik xususiyatga ega, bo`lib shahar havosini tozalovchi o`ziga xos arteriya hisoblanadi. Ular ko`cha shovqinlari, harorat tebranish ko`lamini ma`lum darajada me`yorlaydi, issiq kunlarda havo namligini ko`paytiradi, meliorativ va suv saqlash xususiyatiga ega bo`ladi.

Ayrim daraxt-butalar o'zlarining bejirim gullari bilan manzarali bo'lsa, boshqa turlari esa barglarining turli rang va shakllari, shuningdek, yil fasllarida turli tusda bo'lishlari, qishki sovuq kunlarda doimiy yashil barglari bilan e'tiborni jalb qilib, boshqalari esa sermanzarali bo'lgan mevalari bilan ham qadrlanadi.

Ko'kalamzorlashtirishda, manzarali istiqbolli o'simliklardan kompozitsiya yaratishda barglarining rangi har xil bo'lgan, chiroyli gullaydigan daraxt va butalar tanlanadi. Gullash muddatlari aniqlangan, istiqbolli, manzaralilik darajasi yuqori bo'lgan ayrim buta va daraxt turlarini O'zbekistonning turli tuproq-iqlim sharoitlarida to'g'ri joylashtirilsa, yaratilgan kompozitsiya o'z manzarasini va go'zalligini to'la namoyon qiladi. O'simliklarning ko'rkam manzarasi insonlar kayfiyatini yaxshilaydi, asab tizimini tinchlantiradi. Farg'ona shahrida ham ko'plab o'ta manzarali daraxt-butalar o'simliklar introduksiya qilingan va qilinmoqda.

Tahkidlash joizki, landshaft arxitekturasi, ya'ni muvofiqlik me'morchiligi tushunchasi ko'p bora ishlatilayotir. Bugungi kunda loyihalashtirish deganda, aniq bir obyektning faqat qurilishi nazarda tutilibgina qolmay, balki ushbu jarayondagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari ham inobatga olinmoqda. Ahamiyati jihatidan shaharsozlikda murakkab hisoblangan bunday masala yechimida o'nlab tashkilot-muassasalar mutaxassislari-agronomlar, loyihachilar, me'morlar, quruvchilar, bog'bonu bezovchi-dekoratorlar, botaniklar, turli soha olimlari ishtirok etadi.

Haqiqatan ham, shahrimiz landshaft dizayni shunday shakllantirillmoqdaki, u yil davomida gullab turuvchi shaharni eslatishishi zarur. Bahor kelishi bilan to'kech kuz kunlarigacha gullaydigan turfa olam o'simliklar ko'zni quvontiradi. Shahrimiz yashil ko'rinishida shuningdek eman, kashtan, qayin kabi monumental daraxtlar ham alohida o'rin olgan. Hozirda markaziy ko'chalarimiz yil davomida yashillik tahminlab turuvchi manzarali daraxtlar bilan muntazam boyitib borilmoqda. Masalan, bahor va yoz kunlari salqinlik tarqatuvchi piramida shaklidagi eman, kashtan daraxtlari kuzda barglarini tashlaydi. Lekin ular o'rnini to'keyingi bahorgacha tuya, yel, qarag'ay, boshqa ignabargli o'simliklar egallaydi. Darvoqe, keyingi paytda xususiy xonadonlarda ham ignabargli daraxtlar ekish keng tus olmoqda. Inson salomatligi uchun o'ta muhim bo'lgan kislorodni ko'p miqdorda yetkazib beruvchi va ekologik toza bunday o'simliklar xosiyatini ko'pchilik anglab etmoqda.

Albatta, ilgari ham yashil hududlar bo'lgan, ammo sifat masalasida ular talabga mutlaqo javob bermagan. O'simliklar betartib, aksariyat hollarda bir tizimga mos bo'lmagan ravishda ekib tashlanavergan, parvarish ishlari ham deyarli olib borilmagan. Keyingi 10-15 yil davomida ushbu dolzarb masala asta-sekin o'z yechimini topmoqda. Yuqorida qayd etilganidek, shaharda obodonchilik ishlar nafaqat irrigatorlar, quruvchilar, me'morlar, balki boshqa turli soha vakillarini ham jalb etgan holda majmuaviy tizim asosida amalga oshiriladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu borada barcha bo'g'inlardagi ishlar izchil yuritilayotgani tufayligina shahar iqlimini mehyorda ta'minlab turish imkoniyati mavjud. Bir so'z bilan aytganda, shahrimizda «yashil dastur» doirasida amalga oshirilayotgan harakatlar

bardavom bo'lib, bundan keyin ham o'z samarasini beradi. Farg'ona shahri hududida ro'yxatga olingan manzarali o'simliklar gullarining katta kichikligi, rangi tahlil qilinganda ular quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ladi.

Jadval – 1

Oq gullilar	Pushti gullilar	Sarg'ish gullilar	Binafsha gullilar	Qizil gullilar	Ko'rinimsiz gullilar	Gulsizlar	Mayda gullilar	Yirik gullilar	Doimiy yashil gullilar
7	4	6	3	4	26	5	24	9	6

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki 62 turdan 26 tur ko'rinimsiz gulli, 32 tur esa mayda va yirik gulli o'simliklar ekan. Lekin ular mayda bo'lsada, to'pgul hosil qilganda manzarali ko'rinish hosil qiladi. Ko'rimsiz gulli o'simliklarni esa shox-shabballari, barglari va umuman tashqi qiyofasi manzarali bo'lgani uchun ekib o'stirilmoqda.

Hayotiy shakllari va foydali hususiyatlariga ko'ra turlar soni tahlil qilinganda, ular quyidagicha ekanligi aniqlandi.

Jadval – 2

Bo'yoqbob	Shifobaxsh	Olilovchi moddali	Tolali	Efir moyli	Alkoidli	Hayot shakllariga ko'ra tur va turkum soni			
						Daraxtlar		Butalar	
						Tur soni	Turkum soni	Tur soni	Turkum soni
8	22	9	10	11	7	46	39	18	9

Jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 62 turdan 22 tasi shifobaxsh, 13 tasi efir moyli, 10 tasi tolali, 9 tasi olilovchi modda tutuvchi o'simliklar ekanligi ma'lum bo'ldi.

Hududdagi manzarali daraxt va butalar soni hisob-kitob qilinganda ularni taqsimlanishi quyidagicha bo'ladi.

Jadval – 4

Daraxt va butalarning umumiy soni	Daraxtlar soni	Butalar soni	Virgin archasi	Chinor	Qarag`ay	Biota	Bersklet	Kashtan	Atirgul	Bo`ritaroq	Lola daraxti	Safora	Terak	Zarang	Boshqalar
3096	1095	2221	509	211	205	143	168	99	14 26	46	32	22	58	45	

Jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 3096 tut daraxt va butalardan 2221 tupi butalar ekanligi, yani ikki baravardan ham ortiq. Turlar bo'yicha soni hisoblanganda eng ko'pi daraxtlardan Virgin archasi 509 tup, Qarag`ay 205 tup, butalardan atirgul 1426 tup, normushk 168 tup ekanligi aniqlandi.

Farg`ona shahri hududida ekib o'stirilayotgan manzarali daraxt va butalarning Farg`onaga olib kelingan regionlari, O'zbekiston florasiga qabul qilingan regionlar bo'yicha vatani tahlil qilinganda ular quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ldi

Jadval– 5.

Shimoliy Amerika	Xitoy - Yaponiya	Kavkaz, Qrim	O`rta Yer dengizi	Markaziy Osiyo	Kichik Osiyo	Yevropa	Eron	Afrika	Bolqon yarim oroli	Afg`oniston	Hindiston	Avstraliya
12	15	8	6	4	2	6	2	2	2	1	1	1

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Farg`ona shahri hududida ekib o'stirilayotgan manzarali daraxt va butalarning ko'pchiligi, ya'ni 15 turi Xitoy – Yaponiyadan, 12 turi Amerikadan. O`rta Yer dengiz atrofidan keltirilgan o'simliklar ekanligi aniq bo'ldi. Ularni tabiiy holda tarqalgan regionlari vatani shu o'lkalar bilan bog'langandir.

Shahar va ko'chalarimizning go'zal, xushmanzara va maftunkor bo'lishi ko'p jihatdan bu yerlarda ekilib, parvarishlanayotgan yashil o'simliklarning qay darajada did bilan o'tqazilganiga bog'liqdir. Ota-bobolarimiz ham bejizga qadimdan bog'lar va gulzorlar barpo qilishga alohida e'tibor qaratishmagan. Hozir ham bu savobli ishni o'z kasbiga aylantirgan bog'bon va gulchilarimiz ko'p. Ko'chatning tuproqqa, suvga, haroratga, yorug'likka bo'lgan talabini hisobga olib, ekiladigan joyini to'g'ri tanlab, daraxt etishtirgan bog'bonlar shaharu qishloqlarimiz ko'rkiga ko'rk

qo'shmoqdalar. Olib borilgan kuzatishlar asosida yuqorida bayon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona shahri hududida ekib o'stirilgan manzarali daraxt va butalarning bir qismi, keyingi 30 - 40 yil davomida turli sabablarga ko'ra yo'q bo'lib ketdi. Bular qatoriga bunduk, tukli akatsiya, do'landa, sovun daraxti, Kanada teragi, qizil, qatrong'i, maklyura, katalpa, tikoma, chetancha, piramidasimon kiparis va boshqalarni kiritish mumkin. Lekin keyingi 15-20 yil davomida yo'qolgan manzarali daraxt va butalarni o'rnini bosadigan o'simliklar bilan to'ldirildi. Bular qatoriga- Lola daraxti, ginkgo biloba, virgin archasi, Qrim qarag'ayi, qora qarag'ay, magnoliya, marjon daraxti, maryam daraxti, jo'ka, eman, g'ayrikashtan, forzitsiya, balzam teragi, verba toli, Amerika teragi va boshqalarni kiritish mumkin.

Farg'ona shahri hududini rang – barang manzarali o'simliklar bilan boyitish jarayoni davom etmoqda. Farg'ona shahri keyingi 5 yil davomida ekilgan manzarali o'simliklar hisobiga ancha boyidi va ko'rkiga ko'rk qo'shildi. Ayniqsa, minglab tup ekilgan atirgullar hudud manzarasini yanada go'zallashtiradi. Har bir inson charchaganda sayr etib hordiq chiqaradigan darajada gulzorlar barpo qilishdi. Farg'ona shahri hududida kamyob, viloyatimizni boshqa shaharlaridagi bog` va hiyobonlarda uchramaydigan ajoyib manzarali o'simliklari ham mavjud. Ular albatta muhofazaga muhtoj. Shunday ajoyib manzarali o'simliklar jumlasiga – Ginkgo biloba, Magnoliya, Maryam daraxti, jo'ka, Grab, Forzitsiya, Virgin xurmosi, Marjon daraxti, Chetancha, Verba toli kabilar kiradi. Shu hildagi kam saqlangan keksa yoki yangi o'tkazilgan noyob manzarali daraxt va butalar soni anchagina bor. Bu noyob, chiroyli, ko'rkam o'simliklarni saqlash, ularni ko'pytirish va muhofaza qilish shu kunning birinchi galdagi vazifasi bo'lmog'i lozim. Agar ularga e'tibor berilmasa, yuqorida nomlari keltirilgan va yo'q bo'lib ketgan o'simliklar singari bular ham yo'q bo'lib ketishi turgan gap. Farg'ona shahri hududidagi manzarali o'simliklarni turli bahonalar bilan kesishga qat'iy chek qo'yimoq lozim. Ularni kesish faqat viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining mutaxasislari ruhsati asosida amalga oshirilishiga rioya qilinishi lozim. Shundagina Farg'ona shahri hududidagi noyob manzarali daraxt va butalar saqlanib qoladi, asrlar osha yashab kelayotgan Farg'ona shahri hududidagi chinorlar singari ular ham hozir qanday bo'lsa, shu xildagi yashnagan ko'rinishda kelgusi avlodga saqlanadi. Bularni saqlash va muhofaza qilishda nafaqat bog'bonlar, balki to'liq Farg'ona shahri ahli bir jon bir tan bo'lib faoliyat ko'rsatmog'i lozim.

Bu vazifalarni amalga oshirishda istiqbolli manzarali o'simliklarni (Lola daraxti, Magnoliya, Jo'ka, Grab, G'ayri Kashtan, Eman, Buk, Oq qayin, Virgin xurmosi, Marjon daraxti, Qora qarag'ay, Qrim qarag'ayi, Virgin archasi, Oq qarag'ay, Ginkgo biloba, Forzitsiya, Jasmin, Atirgul tur va navlari, Xind sireni, Chetancha va boshqalar) guli, shox- shabbalari, doimiy yashilligi, umumiy qiyofasi, turli kasalliklarga bardoshlilik bilan ajralib turadi. Bular manzarali o'simliklarga orasida eng yoqimli xush manzaraligi bilan odamlarni o'ziga maftun etadi. Shuningdek, manzarali o'simliklarni tanlay bilishi, ularni ko'pytirish va parvarish qilish uslublarini o'rgangan holda ish yuritish talab yetiladi. O'ylaymizki, bu

maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun hamma imkoniyatlar mavjud, faqat undan unumli foydalanish talab etiladi xolos.

Fargʻona shahri hududida oʻstirilayotgan manzarali daraxt va butalarning roʻyxati

I		Ginkgodoshlar oilasi - Ginkgoacea
	1	Ginkgo biloba – Ginkgo biloba
II		Qoragʻaydoshlar oilasi - Pinacea
	2	Qrim qaragʻayi – Pinus pallasiana Lamb
	3	Oddiy qora qaragʻay – Picea excelsa Zink
III		Archadoshlar oilasi – Cupressacea
	4	Sharq sarvi - Biota orientalis End .
	5	Virgin archasi –Juniperis virginiana L
IV		Toldoshlar oilasi – Salicaceae
	6	Oq tol –Salix alba L
		Majnunol –S. Babylonica L
	7	Oq terak – Populus alba L
		Mirzaterak –P. nigra L
		Koʻk terak – P. Bachofeni Wirzb.
		Balzam terak –P. balsamifera L
V		Yongʻoqdoshlar oilasi - – Juglandacea
	8	Grekk yongʻoqchasi - Juglans regia L
		Qora yongʻoq –J. nigra L
VI		Qayindoshlar oilasi - Betulaceae
	9	Oq qayin –Betula pendula Runh.
	10	Oddiy grab –Carpinus betulus L
VII		Qoraqayindoshlar – Fagaceae
	11	Qizil eman- Quercus robur L
VIII		Qayrogʻochdoshlar – Ulmaceae
	12	Poʻkak qayrogʻoch – Ulmus pumila Z
		Sada qayragʻoch –U. Densa Zintw.
XI		Tutdoshlar oilasi - Moraceae
	13	Sariq maklyura – Maclura auranticaNitt
	14	Oq tut –Morus alba Z
		Shox tut –M. nigra Z
		Yapon tuti –M. multicaulis Perr
	15	Qogʻoz daraxti –Broussonetia Parpyrifera (Z) Vent
		Chinordoshlar oilasi – Platanaceae
	16	Sharq chinori –Platanus orientalis Z.
XI		Raʻnoguldoshlar oilasi – Rosaceae
	17	Xitoy atirguli –Rosa chinensis Jaca
		Lavrovishiya –Zaurcrosus officinafis
XII		Dukkakdoshlar oilasi – Fabaceae
	18	Ipak akatsiya – Albizia julibrissin Durruzz
	19	Oddiy qoʻzoq mevali argʻuvon –Cercis siliquastrum Z
	20	Yapon tuxumagi – Styphinolobium (sophora) japonika Z
	21	Soxta akatsiya – Robinia pseudoacacia Z
	22	Tikon daraxti – Gleditschia triacanthus Z
XIII		Simarubdoshlar – Simurubiaceae

	23	Boygʻan aylant – <i>Ailanthus altissima</i> Swingle.
XIV		Normushkdoshlar – Bereskletdoshlar-Celastraceae
	24	Yapon normushki – <i>Evonimus japonica</i> Z
XV		Shamshoddoshlar oilasi – Buxaceae
	25	Doimiy yashil Shamshod – <i>Buxus sempervirens</i> Z
XVI		Zarangdoshlar oilasi – Aceraceae
	26	Chinorbag zarang – <i>Acer platanoides</i> Z
		Dala zarangi – <i>A. Campestre</i> Z
		Tatar zarangi – <i>a. tataricim</i> Z.
		Amerika zarangi – <i>A. negundo</i> Z
XVII		Sohta kashtandoshlar oilasi - Hippocastonaceae
	27	Sohta kashtan – Hippocastoniaceae
XVIII		Chilonjiydoshlar oilasi - Rhamnaceae
	28	Unabi - jilonjiyda – <i>ziziphus juji</i> bo Mill.
XIX		Jo`kadoshlar – Tiliaceae
	29	Yirik bargli jo`ka – <i>Tilia platuphyllus scop</i>
XX		Gulxayridoshlar oilasi – Malvaceae
	30	Suriya bo`ritarog`i – <i>Hibiscus syriacus</i> Z
XXI		Zaytundoshlar oilasi – Oleaceae
	31	Oddiy shumtol – <i>Fraxinus excelsior</i> Z
		Qora shumtol – <i>F. Pensybvnikca</i> M
	32	Oddiy ligistrum – <i>Ligustrum vulgare</i> Z
	33	Osilgan forzitsiya – <i>Forsythia suspensa</i> (Thunb)Vahll.
	34	Oddiy siren – <i>Syringa vulgaris</i> Z
	35	Shoxlangan yasmin – <i>Jasminium fruticans</i> Z
XXII		Bignoniyadoshlar – Bignoniaceae
	36	Go`zal katalpa – <i>Catalpa speciosa</i> Ward
		Bignoniyasimon katalpa – <i>C. Bignonioides</i> Word
XXIII		Shilvishdoshlar oilasi – Capifoliaceae
	37	Marjon daraxti – <i>Sambucus nigra</i> Z
	38	Tatar shilvisi – <i>Lanicera tatarica</i> Z
XXIV		Xurmodoshlar oilasi – Ebenaceae
	39	Virgin xurmosi – <i>Diospyros virgiana</i> Z.
		Sharq xurmosi – <i>D. Kaki</i> Z
XXV		Tizimguldoshlar oilasi - Verbenaceae
	40	Maryam daraxti – <i>Vitex agnus castus</i> Z
XXVI		Magnoliyadoshlar oilasi - Magnoliacea
	41	Yirik gulli magnoliya – <i>Magnolia grandiflora</i> Z
	42	Lola daraxti – <i>Liriodendron tulipifera</i> Z
XXVII		Lochaniyadoshlar – Joganiaceae
	43	Davidi budleyin – <i>Buddleia Davidii</i>
XXVIII	44	Sapindadoshlar – Sapindaceae
XXIX	45,46	Zirkdoshlar – Berberidaceae
XXX	47,48	Pistadoshlar – Anscardiaceae

Yo`qolgan turlarni qayta tiklash va yangi manzarali o`simliklar bilan boyitish shu kunning talabidir. Shu sababli Farg`ona shahri manzarali o`simliklar tarkibini

noyob, istiqbolli chiroyli – gulli, yoqimli shox – shabbali, tashqi qiyofasi bejirim, doimiy yashil, kasalliklarga bardoshli o‘simliklar hisobiga boyitishni tavsiya etamiz.

Botanika fanidan malakaviy amaliyot davrida Farg‘ona shahri hududidagi o‘simliklarni mavsumiy kuzatish, ularni hayotiy shakllari, morfo-biologik xususiyati, noyob manzarali turlarini gullash biologiyasi, urug‘ mahsuldorligi, urug‘dan ko‘paytirish kabi jihatlarini o‘rganish bo‘lajak mutaxassislarini ilmiy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun har qaysi daraxt va butaning biologik, ekologik xususiyatlarini o‘rganish va xo‘jalikdagi ahamiyatini yaxshi bilish lozim. Bu ulardan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi. Shularni e‘tiborga olib, Farg‘ona shahrida yangi daraxt va butalarni introduksiya qilish ishlarini avj oldirish, ularga ko‘kalamzorlashtirish agrotexnikasini to‘g‘ri qo‘llash choralarini ko‘rish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarova M. X., Nabijonova G. F., Juraev Z. N. (2020). Distribution of *Scutellaria adenostegia* Briq. (Lamiaceae) in botanical and geographical regions of Uzbekistan // ВВК 1 А28. - 2020. - С. 15.
2. Акбарова, М. Х. Обидов МВ Dorivor *Scutellaria comosa* Juz.(Lamiaceae) ning Fargona vodiysidagi senopopulyatsiya holati. *НамДУ илмий ахборотномаси-Наманган-2020*, 8, 78-87.
3. Акбарова, М. Х., Салимов, Н., Жураев, З., & Набижонова, Г. (2020). ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ ЦЕНОТИЧЕСКИХ ПОПУЛЯЦИЙ *SCUTELLARIA COMOSA* JUZ.(LAMIACEAE) ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. In *Рациональное природопользование-основа устойчивого развития* (pp. 12-17).
4. Акбарова, М.Х. (2020). Жураев ЗНУ Состояние ценопопуляций *Scutellaria adenostegia* Briq.(Lamiaceae) в Ферганской долине. *Science and Education*, 1, 4.
5. Акбарова, М.Х., Асадова М.Қ., & Жўраев, З.Н.Ў. (2021). *SCUTELLARIA COMOSA* JUZ.(LAMIACEAE) НИНГ ФАРҒОНА ВОДИЙСИДАГИ ТАБИИЙ ЗАХИРАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(3).
6. Акбарова М. Х., Бекчонова М. Ф. К вопросу о таксономическом ранге эндемичных среднеазиатских групп рода *Scutellaria* L //ВВК. – 2020. – Т. 1. – С. 18.
7. Акбарова М. Х., Ёкубов А. А., Махмудов М. У. СОСТОЯНИЕ ЦЕНОПОПУЛЯЦИЙ *SCUTELLARIA ADENOSTEGIA* (LAMIACEAE) ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ //ВВК 1 А28. – 2020.
8. Акбарова М. Х., Ёкубов А. А., Махмудов М. У. СОСТОЯНИЕ ЦЕНОПОПУЛЯЦИЙ *SCUTELLARIA ADENOSTEGIA* (LAMIACEAE) ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ //ВВК 1 А28. – 2020.